



NUTQIDA NUQSONI BO'LGAN  
BOLALAR BILAN O'TKAZILADIGAN  
JISMONIY MASHQLAR



**BAJARDI : JUMAYEV AZIMQUL**

## Reja:

1. Xalq o'yinlarinig nutqni rivojlantirishgdagi o'rni
2. M.T.T larning nutqni rivojlantirishgdagi vazifalari
3. Ta'limiy o`yinlar

Nutqni rivojlantirish ko'rsatkichlari maktabgacha yoshdagi bolalarning til qobiliyatlari: nutqning tovushli madaniyati (barqaror sof ovozli talaffuz), grammatika (aniq shakl va so'zni shakllantirish), izchil nutq (kichik ijodiy hikoyani mustaqil ravishda tuzish). Ushbu ko'rsatkichlar ro'yxati, albatta, to'liq deb bo'lmaydi. Bu o'qituvchining o'zi oldiga qo'yadigan vazifasiga bog'liq. Men quyidagilarni vazifalarni tuzdim:

har bir bolaning og'zaki nutqining barcha jihatlarini (talaffuz, so'z boyligi, grammatik tuzilish, izchil nutq) rivojlantirish va takomillashtirish.

so'z boyligini kengaytirish va boyitish;

dialogik nutqni o'rgatish (suhbatda faol ishtirok etish, tinglash, javob berish, savollar berish qobiliyati);

qo'llarning nozik motorli ko'nikmalarini rivojlantirish;

ona tiliga qiziqish va hurmatni tarbiyalash.



O`yinlar xalk pedagogikasining tarbiya vositasidan biri hisoblanadi. Asrlar davomida o`yinlar rivojlanib, yangilanib kelmoqda. O`yin faoliyati bola hayotida, uning jismoniy, ruhiy, aqliy kamolatga etishida muhim vositalardan biri hisoblanadi. O`yin orqali bolalar tafakkur, tasavvur, xotira, diqqati kabi barcha psixik jarayonlari rivojlanadi va atrof - muhit haqidagi bilmi yanada kengayib boradi.



Maktabgacha ta'lim muassasasida o`yin faoliyatidan to`g`ri va unumli foydalanish, har bir o`tkaziladigan mashg`ulotlar va sayr faoliyatining samaradorligini oshirib boradi. Maktabgacha tarbiya muassasalarida o`yin faoliyati turli xil shaklda voqeaband - ijroli, harakatli, ta'limiy, musiqiy-ta'limiy kabi yo`nalishda olib boriladi. O`yin bolalar uchun qiziqarli, mazmunli bo`lishi uchun tarbiyachi o`yin qoidasi bilan yaqindan tanish bo`lishi kerak.





O`yin mashg`ulotlaridan voqeaband - ijroli o`yinlar orqali bolalar tafakkuri kengayadi va qiziqishlari rivojlanadi. Rolli o`yinlar orqali bolalarga ularni qurshab turgan kishilarning kundalik hayoti, o`zaro munosabatlari, turmush kechirish yo`sinlari bilan tanishib boradi. Bolalar hamisha kattalarga taqlid qilishadi, qo`g`irchog`ini erkalayotgan qizcha onasining so`zini takrorlaydi, qo`g`irchog`ini beshikka belab alla kuylaydi, mana shu birgina o`yin orqali unda oila sharoitidagi ko`nikmalar hosil bo`layotganligini kuzatishimiz mumki



Bundan tashqari "Shifokor", "Sartaroshxona", "Do`konda", "quruvchilar", "Tikuvchilar", "Bog`cha", "Maktab - maktab" kabi o`yinlar orqali maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar qalbida kasbga qiziqish, faollik, o`zgalarga mehnatiga hurmat, ahil va inoqlilik, shirinsuhanlik kabi hislatlar o`stirib boriladi.

Bolalar yoshiga mos ertaklardan, rus xalq ertagi " Sholg`om", "Bo`g`irsok", o`zbek xalq ertagi "Zumrad va qimmat", "Ikki echki" kabilarni sahnalashtirish, qo`shiqlarni, she'rlarni, hazillarni yod oldirish bola xotirasini mashq qildiradi, fikrni to`plash qobiliyatini, so`z boyligini, nutq faoliyatini, estetik madaniyatini, bolalarda ijrochilik mahoratini, o`ziga bo`lgan ishonch kabi qobiliyatlarni tarkib topishiga yordam beradi.



Harakatli o`yinlar bolalardan epchillikni, chaqqonlikni, diqqatni bir joyga jamlashni, sezgirlikni talab kiladi. Xalq o`yinlaridan "Ismingni eslab qol", "Ko`z bog`lagich", "Oq terakmi, ko`k terak", "g`ozlar", "qushim boshi", "To`p-tosh", "Jami" o`yinlari orqali bolalarda harakat faoliyati rivojlantirilib boriladi, mustaqil faoliyati, jismoniy quvvati ishirilib, o`zligiga ishonch ruhi o`stirib boriladi. Shuningdek turli o`yinchoqlar bilan uynash tup, arqoncha, ot, arava, velosiped kabilar bilan uynaladigan o`yinlar orqali ular qalbida musobaqalashish hislari uyg`otib boriladi. Ayniqsa to`p o`yinlari bolalarning barcha tana harakatlarini rivojlanishiga katta yordam beradi, shuning uchun to`plar rangi yorqinroq, engil, yumshoq, bolalar uchun o`ynashga qulay bo`lishi kerak.



Bolalar bilan sport xonalarida emaklash, sirpanish, tirmashib chiqish, arqon tagidan o`tish mashqlarini o`rgatish va shunga doir quyidagi: "Ona tovuq va jo`jalar", "Arqonga tegmay o`tchi", "Olishish", "Tortishmachoq" kabi o`yinlarni bolalarga o`rgatish orqali ularda ishoraga binoan harakat, jamoa bilan o`ynash, qoidaga amal qilish, chamalash, diqqatni jamlash kabi hususiyatlar tarbiyalanadi.

Ta'limiy o`yinlar orqali bolada mustaqillik, faollik, ijodkorlik masalaga ongli yondoshish malakasi o`stirib boriladi. O`yin ko`rgazmalilik, oddiydan murakkabga o`tish usullari orqali olib boriladi. Tarbiyachi ta'limiy o`yinlarni o`tkazish davomida bola harakatini faollashtiradi, mustaqil harakat qilish qobiliyatini shakllantiradi, o`yindan to`g`ri foydalanilsa bolaning tafakkuri, nutqi, xotirasi ya'ni, aqliy tarbiyasiga asos solinadi. Ta'limiy o`yinlar orqali bolalar eshitish, kurish, sezish a'zolari orqali turli narsalar va ularni yasashda ishlatiladigin materiallarning xossalari, ularni bir - biriga taqqoslashni, guruhlarga ajratishni o`rganadilar.

Ta'limiy o`yinlar kichik guruhlarda quyidagi xilda o`tkaziladi.

O`yinchoklar bilan o`ynaladigan o`yinlar-"Ayiqlarga nima kerak?", "Jajji oyoqchalarimiz", "Zumrad uchun ko`ylaklar" .

Stol ustiga qo`yib o`ynaladigan o`yinlar- "Nima qaerda yuradi?", "Men aytgan narsani ko`rsat", "Kimning qo`lida nima bor?".

Og`zaki usuldagi ta'limiy o`yinlar- "qo`g`irchoq Lolaxonni cho`miltiramiz", "qo`g`irchoq Lolaxon mehmonga keldi", "Ajoyib xaltacha", "Shaklini top", "Rangini top" kabi o`yinlar kiradi.

Eshitish va ko`rish a'zolarini faollashtirish uchun "Xilini top", "qaysi daraxtning mevasi?", "Nimaning pati", "Mevasini top", "Onasini top", "Mevalar va barglar", "Domino", "Yovvoyi va uy xayvonlari", "Ishlash uchun nima zarur", "Bu uychada kanday xayvon yashaydi", "Bu kim yoki nima?" singari o`yinlardan foydalanish maksadga muvofik bo`ladi. Bu

O`yinlar orqali bolalarda meva va sabzavotlar, xayvonlar va parrandalar, yil fasllari, kiyim - kechak va boshkalar, kabi tasavvurlar boyitilib, kengaytirilib, kurish va eshitish, esda saqlab kolish xususiyatlari rivojlantirilib boriladi. Katta guruhlarda uynaladigan "Ayting biz topamiz", "Topgan topag`on", "Oshqovoq pishdi", "Loy o`yini", "Bog`bonlar" o`yinlari orqali mehnatga muxabbat ruhi tarbiyalanib boradi.





E'tiboringiz uchun rahmat...